

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FAN TO'GARAKLARINI
TASHKIL ETISHNING TA'LIMIY-METODIK ASOSLARI**

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИ-
ЗАЦИИ ПРЕДМЕТНЫХ КРУЖКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬ-
НЫХ ШКОЛАХ**

**EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR
ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES (SUBJECT
CLUBS) IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS**

**MADAMINOVA GULZIRA GULAMKADIROVNA,
PhD, dotsent Andijon davlat pedagogika instituti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini samarali tashkil etishning ta'limiy va metodik asoslari yoritiladi. Unda to'garak mashg'ulotlarini rejalashtirish va olib borish tamoyillari, tashkiliy modeli, qo'llaniladigan metodik yondashuvlar, shuningdek, baholash hamda monitoring tizimi ilmiy-pedagogik adabiyotlar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston ta'lim tizimida dolzarb bo'lib turgan masalalar, xususan, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni yanada rivojlantirish zarurati bilan bog'liq holda olib borilgan. Maqolada fan to'garaklarini kompetensiyaviy-integrativ loyiha modeli asosida tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: to'garak mashg'ulotlari, kompetensiya, metodik yondashuv, tashkiliy model, baholash tizimi, fanlararo integratsiya, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim.

Аннотация. В данной статье освещаются образовательные и методические основы эффективной организации предметных кружков в общеобразовательных школах. В ней на основе научно-педагогической литературы и действующих нормативно-правовых документов анализируются принципы планирования и проведения кружковых занятий, организационная модель, применяемые методические подходы, а также система оценки и мониторинга. Исследование проведено в контексте актуальных задач системы образования Узбекистана, в частности необходимости дальнейшего развития у учащихся практических навыков, когнитивных, коммуникативных и социально-эмоциональных компетенций. В статье разработаны научно-методические рекомендации по организации предметных кружков на основе компетентностно-интегративной проектной модели.

Ключевые слова: кружковые занятия, компетенция, методический подход, организационная модель, система оценки, междисциплинарная интеграция, деятельность-ориентированное обучение.

Annotation. This article explores the educational and methodological foundations for the effective organization of extracurricular activities in general secondary schools. It analyzes the principles of planning and conducting club activities, the organizational model, methodological approaches, as well as the system of assessment and monitoring, based on scientific and pedagogical literature and current regulatory documents. The study is conducted in the context of pressing issues in the education system of Uzbekistan, particularly the need to further develop students' practical skills, cognitive, communicative, and socio-emotional competencies. The article develops scientific and methodological recommendations for organizing subject clubs on the basis of a competency-based, integrative project model.

Keywords: club activities, competence, methodological approach, organizational model, assessment system, interdisciplinary integration, activity-oriented learning.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarda nafaqat bilimni, balki ularni real hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim sohasini rivojlantirish rejasi (ESP, 2019–2023) va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining islohot hujjatlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish zarurati alohida qayd etilgan. Ushbu kontekstda umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlari rasmiy ta'lim dasturini to'ldiruvchi va o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'lim ta'siridan tashqarida qo'llab-quvvatlovchi muhim pedagogik faoliyat shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq amaliyotda O'zbekistonning ko'plab umumta'lim maktablarida to'garak mashg'ulotlari asosan musiqa, sport va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashgan bo'lib, ular ko'pincha tizimli metodik asos va fanlararo yondashuvdan holi. Bundan tashqari, to'garak mashg'ulotlarining turli ta'lim bosqichlarida alohida-alohida rejalashtirilishi tizimlilik va uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligiga olib kelmoqda. Qayd etilgan muammolar ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA MUAMMO TAHLILI

UNESCO (2005) umumiy o'rta ta'lim sohasida e'tiborga molik yettita asosiy siyosiy yo'nalishni belgilagan bo'lib, ularning oltitasi bevosita ta'lim va o'qitish jarayoni, yettinchisi esa sifatli ta'limni bilvosita qo'llab-quvvatlovchi omillar — o'quv materiallarini yetkazib berish va xavfsiz jismoniy muhitni ta'minlash bilan bog'liq [4]. Ushbu chaqiriqlar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon banki (2018) tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar bo'yicha

tadqiqotda Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi 30 maktabning 2000 dan ortiq o'quvchisi qamrab olingan. Natijalarga ko'ra, o'quvchilar o'z ko'nikmalarini o'tacha darajadan past baholagan, ayniqsa “boshqalar bilan samarali muloqot qilish”, “his-tuyg'ularni boshqarish” va “dunyoqarashni kengaytirish” yo'nalishlarida kamchiliklar aniq ko'ringan. Bundan tashqari, YUNISEF va Xalq ta'limi vazirligi (2018) tadqiqoti shuni ko'rsatganki, o'quvchilarning faqat 41–43 foizi o'zlashtirilgan bilimlarni real vaziyatlarda samarali qo'llay olgan [5, 6].

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida bilim berish jarayoni yetarli darajada yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, bilimlarni tahlil qilish, amaliyotda qo'llay olish va tanqidiy fikrlashga oid kompetensiyalar shakllantirishda jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, to'garak mashg'ulotlari mazkur bo'shliqni to'ldirish uchun muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar asosida umumta'lim maktablarida fanlararo to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagi olti ta'limiy-metodik tamoyilga asoslanishi lozim deb topdik:

Ixtiyoriylik va motivatsiya tamoyili

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida ta'limning insonparvarlik va shaxsga yo'onaltirilgan xarakteri ta'kidlangan [1]. Ixtiyoriylik o'quvchilarga tanlov erkinligini ta'minlaydi va ularni o'z qiziqishlariga mos faoliyatga jalb etadi. E. Deci va R. Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasiga ko'ra, ixtiyoriy faoliyat o'quvchilarda ichki motivatsiyani mustahkamlaydi va o'quv faoliyatidagi barqarorlikni ta'minlaydi [11; 24].

1. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili

Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati belgilangan. L. Vygotskiyning “proksimal

rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko’ra, o’quvchiga mos, ammo biroz murakkabroq vazifalar berilganda rivojlanish samarali amalga oshadi. Differentsial topshiriqlar orqali turli o’quvchilar bitta to’garakda o’z imkoniyatlariga mos ravishda faollik ko’rsata oladi [14; 36].

2. Kommunikativlik va interaktivlik tamoyili

D. Jonson va hammualliflarning konstruktivistik ta’lim kontsepsiyasiga asosan, bilimlar samarali o’zlashtirilishi uchun o’quvchilar faol muloqot va hamkorlik jarayonida ishtirok etishi zarur [12;78]. Interaktiv metodlar (muhokama, guruhda ishlash, rolli o’yin) o’quvchilarning tanqidiy fikrlash, muloqot va jamoaviy ishlash malakasini rivojlantiradi, bu esa DTSdagi kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar talablariga mos keladi.

3. Tizimlilik va izchillik tamoyili

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunda ta’lim jarayonining uzluksizligi va izchilligi muhim prinsip sifatida mustahkamlangan [1]. To’garak mashg’ulotlari oddiy tushunchalardan murakkab muammolarga bosqichma-bosqich o’tish orqali o’quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda rivojlantiradi va o’zlashtirish darajasini barqaror oshiradi.

4. Integrativlik (fanlararo bog’liqlik) tamoyili

Zamonaviy ta’lim paradigmasida fanlararo integratsiya o’quvchilarning bilimlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi yondashuv sifatida alohida o’rin tutadi. Masalan, matematika va informatikani, til va tarixni yoki fizika va texnologiyani birgalikda o’rganish o’quvchilarda tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

5. Faoliyatga yo’налtirilganlik tamoyili

DTSda o’quvchilarning bilimni amaliy faoliyat orqali egallashi zarurligi alohida ta’kidlangan. Faoliyat orqali o’rganish (laboratoriya tajribalari, loyiha ishlari, muammoli masalalar yechish) o’quvchilarning nafaqat nazariy bilimini, balki amaliy

ko’nikmalarini ham rivojlantirib, ularni real hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

To’garaklarni tashkil etishning tashkiliy modeli

Yuqoridagi tamoyillar va ta’lim standartlari asosida umumta’lim maktablarida fan to’aklarini tashkil etishning besh komponentli tashkiliy modeli ishlab chiqildi:

1. Maqsad va vazifalarni belgilash. To’garakning asosiy maqsadi o’quvchilarning fanga oid bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga ularning amaliy, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat bo’lishi kerak. Vazifalar bilimlarni kengaytirish, amaliy ko’nikmalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash va jamoaviy faoliyatni rivojlantirishga yo’налtirilgan bo’lishi kutiladi. Maqsad va vazifalar DTSdagi tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan uyg’un bo’li shi zarur.

2. Ishtirokchilarni tanlash. 7–9-sinf o’quvchilari yosh psixologiyasi nuqtai nazaridan to’garak faoliyati uchun eng maqbul guruh hisoblanadi. 10–15 nafar o’quvchidan iborat kichik guruhlarda individual yondashuv va faol ishtirokni ta’minlash osonlashadi. Tanlovda o’quvchining qiziqishi, boshlang’ich tayyorgarlik darajasi va ijtimoiy faolligi inobatga olinadi.

3. Mashg’ulotlar davomiyligi va chastotasi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar o’quvchilarning diqqatni jamlash samaradorligi 45–90 daqiqa oraliq’ida yuqori saqlanishini ko’rsatadi. Shu bois to’garak mashg’ulotlarini haftasiga 1–2 marta, har biri 60–90 daqiqa davomida tashkil etish maqsadga muvofiq. Jadval o’quvchilarning asosiy dars yuklamasiga moslashtirilishi zarur.

4. O’qituvchining roli. Zamonaviy ta’lim paradigmasida o’qituvchi an’anaviy bilim beruvchidan ko’ra faoliyatni tashkil etuvchi va yo’налtiruvchi shaxs sifatida qaraladi. Konstruktivistik ta’lim nazariyasiga asosan, o’qituvchi to’rtta rolni bajaradi: fasilitator, moderator, motivator va maslahatchi.

5. O’quv muhitini tashkil etish. Psixologik jihatdan qulay, erkin va qo’llab-quvvatlovchi

muhit o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'zaro hurmat, xatolarga tolerant munosabat, erkin fikr bildirish imkoniyati va hamkorlikka asoslangan faoliyat samarali o'quv muhitining asosiy komponentlarini tashkil etadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (multimedia, interaktiv platformalar) o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Kompetensiyaviy-integrativ loyiha modeli

Barcha fanlar uchun mos keladigan to'garak mashg'uloti mazmunini shakllantirishda "kompetensiyaviy-integrativ loyiha modeli" asosiy g'oya sifatida taklif etiladi. Ushbu model quyidagi to'rtta blokdan iborat:

1. Muammoli-kontekstual blok. Har bir to'garak darsi real hayotiy muammo yoki savol bilan boshlanadi (masalan, matematikada "kundalik hayotda foiz hisoblash", biologiyada "atrof-muhit muammolari"). Maqsad: o'quvchini fikrlashga undash va motivatsiyani uyg'otish.

2. Faoliyat (amaliy) bloki. O'quvchilar kichik guruhlarda loyiha, tajriba, muhokama yoki rolli o'yin shaklida ishlaydi. Universal faoliyat turlaridan har bir fan o'ziga mos metodlarni qo'llay oladi.

3. Integratsiya bloki. Bir fan boshqa fan bilan bog'liq holda o'rganiladi: matematika + informatika, til + tarix, fizika + texnologiya. Ushbu bosqich o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi.

4. Refleksiya va natija bloki. O'quvchilar "Men nimani o'rgandim?", "Qanday qiyinchilik bo'ldi?" kabi savollar asosida faoliyatini tahlil qiladi. Natija: taqdimot, poster, mini-loyiha yoki chiqish bileti (exit ticket).

Metodik yondashuvlar

Sotsiokonstruktivistik ta'lim nazariyasiga (L. Vygotsky) asosan, bilim ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi va o'quvchi faol subyekt sifatida o'rganish jarayonida ishtirok etadi. Ushbu asosda to'garak mashg'ulotlari uchun quyidagi zamonaviy metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

•Project-Based Learning (PBL) — muammo asosida loyiha yaratish; barcha fanlar

uchun mos.

•Inquiry-Based Learning — savol va tadqiqot orqali o'rganish; tabiiy fanlar, tarix, til uchun.

•Collaborative Learning — guruhda ishlash orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

•Problem-Based Learning — muammo yechishga yo'naltirilgan o'qitish; matematika, fizika, iqtisod uchun.

•Experiential Learning [13] — "tajriba-refleksiya-konseptualizatsiya-amaliyot" sikli; kimyo, biologiya uchun.

•Flipped Learning — nazariyani mustaqil o'zlashtirish + darsda amaliyot va muhokama.

•Design Thinking [9] — muammoni chuqur tahlil qilish, g'oya ishlab chiqish va sinash; texnologiya, san'at uchun.

•STEAM yondashuvi — fanlararo integratsiya orqali kompleks fikrlashni rivojlantirish.

Ushbu yondashuvlar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilganda to'garak mashg'ulotlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois ularni tizimli va maqsadga yo'onaltirilgan holda qo'llanilishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholash va monitoring tizimi

Pedagogik yondashuvlarga ko'ra, baholash jarayoni faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi emas, balki o'qitish va o'rganishni boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida baholash o'quvchining bilimini emas, balki uning bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlashga yo'naltiriladi [10,7]. Shu bois to'garak mashg'ulotlarida formativ (jarayon davomida) va summativ (yakuniy) baholashni o'z ichiga olgan kompleks model qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Baholashda besh asosiy mezon asos qilib olinadi:

Kognitiv kompetensiya (B. Blum taksonomiyasi asosida): mavzuni tushunish, tushunchalarni to'g'ri qo'llay olish, tahlil va

xulosa chiqarish.

Amaliy ko'nikmalar (L. Anderson va D. Krathwohl nazariyasi): bilimni real vaziyatda qo'llay olish, muammoni yechish, amaliy topshiriqlarni bajarish.

Kommunikativ kompetensiya (D. Hayms nazariyasi): fikrini aniq ifodalash, guruhda ishlash, muloqot madaniyati.

Ijtimoiy faollik va hamkorlik (D. Jonson va R. Jonson): guruh ishida ishtirok, mas'uliyat va tashabbus, boshqalar bilan hamkorlik.

Ijodkorlik va refleksiya (D. Shon nazariyasi): yangi g'oyalar taklif qilish, mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish.

Monitoring esa baholashdan kengroq tushuncha bo'lib, o'quvchilarning rivojlanish jarayonini tizimli kuzatish, tahlil qilish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Monitoring usullari: kuzatuv, portfel, o'z-o'zini baholash (refleksiya yozuvlari), o'zaro baholash, diagnostik va yakuniy baholash (pre-test/post-test).

XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan tamoyillar tizimi, aniq tashkiliy model va

zamonaviy metodik yondashuvlar majmuini bir-biriga integratsiyalashgan holda qo'llanilishi zarur. Taklif etilgan kompetensiyaviy-integrativ loyiha modeli o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional va ijodiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan baholash va monitoring tizimi baholashni faqat yakuniy natijani aniqlovchi vosita sifatida emas, balki o'quv faoliyatini uzluksiz tartibga soluvchi, yo'naltiruvchi va takomillashtiruvchi pedagogik mexanizm darajasiga ko'taradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga, reflektiv fikrlashini rivojlantirishga va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan strategik omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Fan to'garaklarini tashkil etishning mazkur konseptual asosi o'z navbatida DTS talablarini bajarish, maktabdan tashqari ta'lim faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish va o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, kreativ hamda ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda muhim metodik ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari (DTS). — Toshkent, 2017.
3. Education Sector Plan (ESP) 2019–2023. — Toshkent: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2019.
4. UNESCO. Education for All: The Quality Imperative. — Paris: UNESCO, 2005.
5. World Bank. Uzbekistan: Social and Emotional Skills Survey. — Washington, D.C., 2018.
6. UNICEF and Ministry of Public Education (MOPE). Learning Assessment in Uzbekistan. — Tashkent, 2018.
7. Black P., William D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. — London: GL Assessment, 1998.
8. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. — New York: Longmans, 1956.
9. Brown T. Change by Design. — New York: Harper Business, 2009.
10. Brookhart S. M. How to Give Effective Feedback to Your Students. — Alexandria: ASCD, 2008.
11. Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory. In: Handbook of Theories of Social Psychology. — London: SAGE, 2012.
12. Johnson D. W., Johnson R. T. Cooperative Learning. — Edina: Interaction Book Company, 1999.
13. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
14. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.